

**TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, XORIJDA
MEHNAT FAOLIYATINI YURITAYOTGAN FUQAROLARGA HAR TOMONLAMA
KO'MAK KO'RSATISH**

Yangiboyev Norquvvat Qulnazarovich

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti Katta o'qituvchisi, Dotsent.

Bo'riyeva Sevinch Abdusalom qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs 323-guruh talabasi.

To'rayeva Shodiya Ulug'bek qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs 323-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19799115>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish va xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan shaxslarga har tomonlama ko'mak berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida yoritilgan. Bundan tashqari xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga ko'plab qulayliklar yaratilganligi haqida to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi, tashqi mehnat, migratsiya, shartnoma, til kurslari, imkoniyatlar, O'zbekiston-2030 strategiyasi, qulayliklar, mehnat, subsidiya, migrantlar, noqonuniy migratsiya, ish kuchi, Rossiya va Germaniya.*

Bugungi dunyoda millionlab odamlar o'z hayotini yaxshilash umidida begona yurtlarda rizq izlashga majbur bo'lmoqda. Bu jarayon, shubhasiz, global iqtisodiyotning muhim bir qismi ekanligini inkor etib bo'lmaydi. O'zbekiston ham o'z fuqarolarining chet elda mehnat qilish tendensiyasiga duch kelmoqda.

Shu bois, davlatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – tashqi mehnat migratsiyasi tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, xorijda mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizning qonuniy huquqlarini himoya qilish va ularga har tomonlama yordam ko'rsatishdir.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida aynan shu masalaga bag'ishlangan muhim maqsadlar belgilangan. Davlat chet elda ish topishga yordamlashish bo'yicha boshqa davlatlar bilan ko'proq shartnomalar tuzishni rejalashtirilgan. Bundan tashqari, migrantlarni kasbga o'rgatish va til bilishini yaxshilash uchun xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirilgan.

Chet eldan qaytib kelgan yurtdoshlarimizga ham e'tibor qaratilib, ularning ish topishi, yangi kasb o'rganishi va tadbirkorlik qilishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. Noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlik ham kuchaytirilgan.

Bugungi kunda global miqyosda migratsiya jarayonlari tobora kuchayib bormoqda.

Biroq, ushbu jarayonning bir qismi noqonuniy shaklda kechib, migrantlarning o'zlari, qabul qiluvchi davlatlar va ularning jamiyatlari uchun bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Noqonuniy migratsiya deganda, davlatning migratsiya qonunlari va qoidalarini buzgan holda amalga oshiriladigan ko'chish tushuniladi. Bu holat migrantlarning huquqlari poymol bo'lishiga, ekspluatatsiyaga uchrashiga va ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lishiga olib keladi.


So'nggi yillarda Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya va BAA bilan migrantlar bo'yicha muhim shartnomalar imzolagan. Chet eldagi o'zbekistonliklarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus fond ham tashkil etilgan.

Bu chora-tadbirlar chet elda ishlashni istagan fuqarolarimizga qulay sharoit yaratishga qaratilgan.

Hukumat, shuningdek, migrantlarga yo‘l, patent va sug‘urta kabi xarajatlar uchun arzon kreditlar ajratmoqda.

Xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan quyidagi kam ta‘minlangan oila sifatida e‘tirof etilgan shaxslarga yiliga bir marta 50 ming so‘m sug‘urta uchun subsidiya to‘lanadi

- Ijtimoiy himoya yagona reyestri
- Temir daftari
- Ayollar daftari
- Yoshlar daftari.



Yuqoridagi diagrammada ko‘rib turganimizdek O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining deyarli 60% (1,2 million kishi) Rossiya federatsiyasida mehnat faoliyatini yuritib kelmoqda.

Bundan tashqari, Qozog‘iston Respublikasida 10% (191,8 ming kishi), Turkiya Respublikasida esa 6% (113,8 ming kishi) Janubiy Koreyada esa 3% (68,1 ming kishi) va boshqa davlatlarda 21% (424,4 ming kishi mehnat faoliyatini yuritib kelmoqda.

Bu mehnat migrantlarining 72,4% ni erkaklar va qolgan 27,6% ni esa ayollar tashkil etgan.

Tashqi mehnat migratsiyasi davlatlarning pul o‘tkazmalarining sezilarli qismini tashkil etadi. Mamlakatimizda Markaziy bank statistikasiga ko‘ra, 2024-yil uchun O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari hajmi 12,6 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

Year	Remittances (% of GDP)
2020	11.65% <small>TRADING ECONOMICS</small>
2022	21% <small>TABETAUZ</small>
2023	17.8% <small>TABETAUZ</small>
2024	14% <small>ICHTAQTUQUR SAHI</small>

Yuqoridagi jadval chet davlatlardan pul o'tkazmalari mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismini tashkil etishining yaqqol isbotidir.

Tadqiqotchi olimlardan A.Smit 18 asrda migratsiya to'g'risida o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari" asarida mehnat bozorida muttanosiblik va tengsizlik oqibati migratsiya jarayoni shakillanishiga sabab deb ko'rsatgan¹.

Adam Smitning bu boradagi fikri, «Hamma odamlarda, — bitta xohish, istak mavjud, ya'ni o'z yashash sharoitlarini va turmush tarzini yaxshilash kabi orzusi insonlarda hech qachon yo'qolmaydigan istak bo'lib qolaveradi»deydi

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlarga ko'ra, "sayyoramizda xalqaro migrantlar soni 281 million kishini ularning aksariyati mehnat muhojirlari tashkil etib, 1990 yilga nisbatan 119 millionga oshgan. Bu esa, rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi migratsiyani demografik o'sishida va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida migratsiyani boshqarishga xizmat qilmoqda.

Hozirda ishchi kuchining eng katta oqimini beshta hudud misolida ko'rishimiz mumkin bular, Germaniya, AQSh, Yevropa, Rossiya, Fors ko'rfazi mamlakatlari va Turkiya tomon yo'naltirilmoqda

2012-yildan 2021-yilgacha bo'lgan o'n yil davomida mehnat bozori ehtiyojlariga yo'naltirilgan chet el fuqarolarining qonuniy migratsiyasini rag'batlantiruvchi ko'plab tashabbuslar, tajriba loyihalari va dasturlar paydo bo'ldi. Yaqinda Yevropa migratsiya tarmog'i (EMN 2022) doirasida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Germaniya hozirda Yevropa Ittifoqida Malakali ishchi kuchi harakatchanligi bo'yicha eng ko'p tashabbusga ega a'zo davlat hisoblanadi.

1955-yilda, Ikkinchi jahon urushi tugaganidan atigi o'n yil o'tgach va yangi tashkil etilgan Federal Germaniya Respublikasi hukumati Italiya bilan ishchilarni yollash to'g'risida bitim tuzdi. Ko'p o'tmay, boshqa davlatlar bilan, birinchi navbatda, Janubiy va Janubi-Sharqiy Yevropa bilan kelishuvlar imzolandi. Mamlakatlar, jumladan Ispaniya (1960), Gretsiya (1960), Turkiya (1961), Marokash (1963), Portugaliya (1964), Tunis (1965) va Yugoslaviya (1968) bilan bo'lgan munosabatlar 18 Ko'p hollarda kelib chiqish mamlakatlari ichki mehnat bozorlaridagi bosimni yumshatish va pul o'tkazmalarini rag'batlantirish uchun ishchilarni yuborish. Xuddi shunday Turkiya uchun to'g'ri, ammo 1961-yilgi kelishuv mamlakat 1952-yilda NATOga a'zo bo'lganidan keyin tashqi siyosat nuqtai nazaridan ham kuchaytirildi va mehnat muhojirlarini Germaniyaga yuborish sxemasi o'z isbotini topdi.

Chet el fuqarolari Germaniyada butunlay yangi kasb-hunar ta'limi kursini ham boshlashlari mumkin: ya'ni, o'z vatanlarida oldindan egallangan ko'nikmalar va o'rta maktabni tugatganidan


¹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>

keyin. Ular Germaniyada maktab yoki korxonaga asoslangan o'quv dasturida o'rin olishlari, o'qishni boshlashdan oldin zarur til ko'nikmalariga ega bo'lishlari (odatda, minimal daraja CEFR bo'yicha B1 hisoblanadi) va rejalashtirilgan butun qolish muddati uchun yashash xarajatlarini qoplay olishlarini ko'rsatishlari kerak. So'nggi talab ayniqsa qattiq, chunki faqat bir nechta korxonaga asoslangan dual ta'lim kurslari yetarli yashash nafaqasini ta'minlagan.

Ushbu imkoniyatdan foydalanish uchun nomzodlar Germaniyadagi maktablar yoki korxonalarga asoslangan kasb-hunar ta'limi dasturlaridan biriga qabul qilinishlari kerak. Ta'lim jarayoni nazariya va amaliyotning uyg'unligiga asoslangan bo'lib, talabalar o'z tanlagan sohalarini bevosita ish joylarida o'rganadilar.

Qabul jarayoni odatda nomzodning avvalgi ta'limi, til bilish darajasi va motivatsiyasini baholashni o'z ichiga oladi. Ba'zi hollarda suhbat yoki maxsus testlar ham o'tkaziladi. O'quv dasturlari turli sohalarni qamrab oladi, jumladan, muhandislik, tibbiyot, IT, servis va hunarmandchilik kabi yo'nalishlar mavjud. Talabalar o'qish davrida zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi va o'z sohalarining yetakchi mutaxassislari bilan birga tajriba orttiradilar.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga muvofiq ravishda, o'zbekistonlik yoshlarning xorijda kasb o'rganishlari va malaka oshirishlari uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi mamlakatimizning inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Germaniyadagi kasb-hunar ta'limi dasturlari bu borada muhim qadam bo'lib, o'zbekistonlik yoshlarga yangi ufqlarni ochadi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.



Ushbu diagramma ko'rsatilganidek O'zbekiston Respublikasi mehnat migrantlari deyarli 53%i qurilish sohasida mehnat faoliyatini yuritib kelmoqda. Boshqa sohalarda esa ularning foiz miqdorlari qurilish sohasidan ancha farq qiladi. Buning asosiy sababi fuqarolarning til bilmaslik darajasidir.

O'zbekiston va Rossiya mehnat migratsiyasida yangi sahifa ochmoqda

O'zbekiston va Rossiya hukumatlari o'zaro mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash yo'lida muhim qadam tashlamoqda.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi xabariga ko'ra, ikki davlat mehnat migratsiyasini tartibga solishning yangi mexanizmini joriy etishga kelishib olgan.

Migratsiya agentligi direktori Behzod Musayev va Rossiya Mehnat va bandlik federal agentligi (Rostrud) rahbari Mixail Ivankovning Moskvadagi uchrashuvi chog'ida ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilingan. Muzokaralar natijasida Rossiyaga ishlash uchun ketayotgan o'zbekistonlik migrantlar uchun qator qulayliklar yaratishga qaratilgan kelishuvlarga erishilgan.

Xususan, Rossiyaga yo'l olayotgan fuqarolar uchun zarur bo'lgan ruxsatnomalarni olish tartibini bevosita O'zbekiston hududida tashkil etish masalasini ishlab chiqish jadallashgan. Bu migrantlarning Rossiyaga borishdan oldin barcha hujjatlarni o'z yurtida rasmiylashtirish imkoniyatini yaratadi, ortiqcha ovoragarchilik va vaqt yo'qotishlarining oldini olgan.

Yana bir muhim yangilik – Rossiyada ishlash uchun patent to'lovlari endilikda ish beruvchilar zimmasiga yuklatilishi rejalashtirilgan. Bu migrantlarning moliyaviy yukini sezilarli darajada yengillashtiradi va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, rus tilini bilish darajasini tasdiqlovchi imtihonni ham endi Toshkent shahrida topshirish imkoniyati yaratiladi. Bu Rossiyaga ishlashga borishni rejalashtirayotgan fuqarolar uchun qulaylik tug'diradi va ularning vaqtini tejaydi.

Xulosa

O'zbekiston o'z fuqarolarining chet elda ishlash va yangi kasblarni o'rganish imkoniyatlarini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bu borada aniq yo'nalishlar belgilab bergan. Rossiya bilan mehnat migratsiyasi bo'yicha yangi kelishuvlar va Germaniyadagi kasb o'rganish imkoniyatlari bunga yaqqol misoldir.

Ko'pchilik o'zbekistonliklar Rossiya, Qozog'iston va Turkiyada mehnat qiladi. Chet eldan kelayotgan pul mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim. Chet eldagi kam ta'minlangan oilalar ham davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Germaniya o'zga yurtliklar uchun yangi kasb o'rganishga imkon bermoqda. Buning uchun nemis tilini bilish va o'qish davrida o'zini ta'minlash kerak. Ta'lim maktab va korxonalarda olib boriladi.

O'zbekiston va Rossiya migrantlarga qulaylik yaratish uchun yangi tizim joriy etilgan.

Endi ruxsatnomalarni O'zbekistonda olish, patent to'lovlarni ish beruvchi to'lashi va rus tili imtihonini Toshkentda topshirish mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, O'zbekiston chet elda ishlayotgan fuqarolariga yordam berish va ularning huquqlarini himoya qilishga intilmoqda. Germaniya va Rossiya bilan hamkorlik bu yo'lda muhim qadamdir. Bu o'zbekistonlik yoshlarga yangi imkoniyatlar ochib, ularning kelajagini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli//](https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi matbuot xizmati xabarlari (2025-yil 7-fevral).
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari (2024-yil yanvar-oktyabr).
5. Smit, A. (18-asr). *Xalqlar boyligining tabiati va sabablari*.